

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 8



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариш давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариш давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Надира Махкамова

СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЎРНАТИЛГАНИДАН КЕЙИН ТУРКИСТОНДА ЖАМИЯТ ИЖТИМОИЙ ТУЗИЛМАСИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ.....5

2. Ollabergan Allaberganov

1945–1960-YILLARDA XORAZM VILOYATI QISHLOQLARIDA MAKTABGACHA TARBIYA TIZIMIDAGI MUAMMO VA ZIDDIYATLAR.....13

3. Zaxra Mirzayeva

K.P. FON KAUFMAN MA’MURIYATINING ILK KO‘RGAZMA TASHABBUSLARI.....17

4. Akmal Mengliboyev

SOVET HOKIMIYATI O‘RNATILISHI ARAFASIDAGI JANUBI-SHARQIY BUXORODA VAZIYAT.....23

5. Xushnudbek Mamadaliev

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA FARG‘ONA VODIYSI SHAHRLARIDAGI DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR.....28

6. Xosiyat Nafiddinova

MDH DAVLATLARIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TARIXIY-ETNOGRAFIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY TADQIQOT YO‘NALISHLARI.....35

7. Бекзод Пайзуллаев

БУХОРО АМИРЛИГИ ВА ҚЎҚОН ХОНЛИГИНИНГ ЖИЗЗАХ, ЎРАТЕПА ВА ХЎЖАНД УЧУН КУРАШЛАРИ ТАРИХИ БЎЙИЧА МУЛОҲАЗАЛАР.....39

8. Mo‘minjon Salayev

BAQTRIYA HUUJATLARIDA AYOLLARNING HUQUQIY VA IJTIMOIIY MAQOMI (IV – VIII ASRLAR).....46

9. Nafisa Hayotova

БУХОРО ШАҲРИ МЕЪМОРИЙ МУҲИТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР: СИЁСИЙ ҲОКИМИЯТ ВА МЕЪМОРИЙ УСЛУБ ЎРТАСИДАГИ БОҒЛИҚЛИК.....55

10. Sevara Elmurodova


O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR MOHIYATI.....64

11. Ziyodulla Eshmirzayev

TO‘G‘ONSIZ SUG‘ORISHDAN MUHANDISLIK NAZORATIGA: XORAZMVOHASI IRRIGATSIYA TIZIMIDAGI BURILISH (1946–1991-YILLAR).....75

12. Абзамжон Юсупов

ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ЖАДИДЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-МАЪРИФИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИ.....81



Xosiyat Ravshanovna Nafiddinova,
Buxoro davlat universiteti dotsenti
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MDH DAVLATLARIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TARIXIY-ETNOGRAFIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY TADQIQOT YO'NALISHLARI

For citation: Khosiyat R. Nafiddinova. HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC FOUNDATIONS OF INTERETHNIC RELATIONS IN THE CIS COUNTRIES AND CONTEMPORARY RESEARCH DIRECTIONS. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 8.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.22010056>

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada so'nggi yillarda MDH mamlakatlarida millatlararo munosabatlar masalalarining o'rganilishi hamda atroflicha tadqiq etilishi chuqur muhokama qilingan. Qolaversa, zamonaviy dunyoda millatlararo munosabatlarni shakllantirishda gumanitar hamda bag'rikenglik siyosatining o'ziga xos mohiyati va tutgan o'rnini ochib berishga alohida harakat qilingan. Shuningdek, bu muhim mavzuda xalqaro migratsiya, diniy bag'rikenglik, milliy-madaniy markazlar faoliyati, til siyosati va ijtimoiy birdamlik tushunchalari oxirgi besh yillikdagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy mazmunini tashkil qilishi haqidagi fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: millatlararo munosabatlar, bag'rikenglik, migratsiya, ijtimoiy birdamlik, madaniy integratsiya, kommunikativ birlik, tizimli tadqiqotlar, ko'pmillatlilik, tolerantlik.

Равшановна Хосият Нафиддинова,
доцент Бухарского государственного университета,
доктор философии (PhD) по историческим наукам

ИСТОРИКО-ЭТНОГРАФИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ГОСУДАРСТВАХ СНГ И СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИХ ИССЛЕДОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье подробно обсуждаются вопросы изучения и всестороннего исследования межнациональных отношений в странах СНГ в последние годы. Кроме того, предпринята особая попытка раскрыть суть и роль гуманитарной политики и политики толерантности в формировании межнациональных отношений в современном мире. Также выдвигаются идеи о том, что понятия международной миграции, религиозной терпимости, деятельности национально-культурных центров, языковой политики и социальной солидарности составляют основное содержание научных исследований за последнее пятилетие.

Ключевые слова: межэтнические отношения, толерантность, миграция, социальная сплоченность, культурная интеграция, коммуникативное единство, системные исследования, многонациональность, терпимость.

Khosiyat R. Nafiddinova,Associate Professor, Bukhara State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences**HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC FOUNDATIONS OF INTERETHNIC
RELATIONS IN THE CIS COUNTRIES AND CONTEMPORARY RESEARCH
DIRECTIONS****ABSTRACT**

This scientific article discusses in detail the study and comprehensive research of interethnic relations in the CIS countries in recent years. Furthermore, a special attempt has been made to reveal the essence and role of humanitarian and tolerance policies in shaping interethnic relations in the modern world. It also puts forward the ideas that the concepts of international migration, religious tolerance, activities of national-cultural centers, language policy, and social solidarity constitute the main content of scientific research over the past five years.

Index Terms: interethnic relations, tolerance, migration, social cohesion, cultural integration, communicative unity, systematic research, multinationality, tolerance.

Kirish:

XXI asrda millatlararo munosabatlar masalasi nafaqat siyosiy-huquqiy yoki sotsiologik muammo, balki chuqur tarixiy-etnografik mazmunga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki har bir jamiyatda turli etnik guruhlarining o'zaro aloqalari, madaniy yaqinlashuvi, kundalik turmushdagi hamkorligi, diniy bag'rikenglik an'analari va umumfuqarolik birdamligi uzoq tarixiy jarayonlar davomida shakllanadi. Shu jihatdan millatlararo munosabatlarni faqat zamonaviy siyosiy ko'rsatkichlar orqali emas, balki tarixiy xotira, etnik tarkib, migratsiya jarayonlari, madaniy meros, urf-odatlar va ijtimoiy institutlar bilan bog'liq holda o'rganish ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Sobiq ittifoq hududida shakllangan ko'p millatli demografik tarkib, ichki migratsiya, sanoatlashtirish davridagi aholi ko'chishlari, chegaralarning siyosiy-ma'muriy tarzda belgilanishi va mustaqillikdan keyingi davlat qurilishi jarayonlari millatlararo munosabatlarning turli modellari yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Moldova, Ozarbayjon, Armaniston, Tojikiston, Belarus va Turkmaniston tajribalari shuni ko'rsatadiki, etnik xilma-xillikni boshqarish, fuqarolik identifikatsiyasini mustahkamlash va madaniy merosni saqlash masalalari har bir mamlakatda tarixiy sharoit, demografik tarkib va davlat siyosati xususiyatlariga ko'ra turlicha shakllangan.

Tadqiqot metodologiyasi:

Maqolaning metodologik asosini tarixiy-taqqoslash, etnografik tavsif, qiyosiy tahlil, institutsional yondashuv hamda sotsiologik monitoring natijalarini sharhlash usullari tashkil etadi. Tarixiy-taqqoslash usuli turli mamlakatlarda millatlararo munosabatlarning shakllanish jarayonlarini solishtirish imkonini bersa, etnografik yondashuv etnik guruhlarining kundalik hayoti, madaniy muloqoti, urf-odatlari va ijtimoiy aloqalarini aniqlashga xizmat qiladi. Institutsional tahlil esa davlat organlari, milliy-madaniy markazlar, assambleyalar, qo'mitalar va fuqarolik jamiyati institutlarining millatlararo totuvlikni ta'minlashdagi o'rnini yoritadi.

Asosiy qism:

Bugungi globallashtirish, migratsiya, urbanizatsiya va axborot makonining kengayishi sharoitida etnik guruhlar o'rtasidagi munosabatlar kundalik hayot, mehnat bozori, ta'lim, nikoh-oila munosabatlari, mahalla va hududiy ijtimoiy aloqalar tizimida yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu sababli millatlararo munosabatlarni tarixiy-etnografik jihatdan tahlil qilish etnik guruhlarining faqat siyosiy maqomini emas, balki ularning real ijtimoiy hayotdagi o'rnini, madaniy almashinuvi, o'zaro moslashuvi va umumiy fuqarolik makoniga integratsiyalashuvini aniqlash imkonini beradi[1].

So'nggi yillarda Rossiya Federatsiyasida millatlararo va konfessiyalararo munosabatlar bo'yicha monitoringlar hamda hududiy sotsiologik tadqiqotlar tizimli olib borilmoqda. Bu

tadqiqotlarda aholining millatlararo munosabatlarni baholashi, umumrossiya fuqarolik identifikatsiyasi, migrantlarga munosabat, kamsitilish holatlari va hududiy etnik taranglik omillari asosiy indikatorlar sifatida qo'llanadi[2]. bu borada bir qator olimlarning ham ilmiy tadqiqotlari diqqatga sazovor. Jumladan I.I.Gorlova va A.L.Zorin tadqiqotlarida Rossiyada millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish va umumrossiya fuqarolik identifikatsiyasini shakllantirish masalasi tahlil qilingan[3,22-29]. V.A.Stroykov esa hozirgi Rossiya jamiyatida millatlararo va etnik munosabatlarning muammolari hamda istiqbollari o'rgangan[4,21-27]. Shuningdek, T.B.Smirnovaning ishlarida postsovet hududida etnik jamoalarning o'zini o'zi tashkil etishi, ularning tuzilishi va funksiyalari tahlil qilingan[5,210-234].

Qozog'istonda tadqiqotlarda esa Assambleya naroda Kazaxstana, Amaliy etnosiyosiy tadqiqotlar instituti va davlat monitoringlari orqali millatlararo barqarorlik, fuqarolik identifikatsiyasi, davlat etnosiyosatidan qoniqish hamda Bogardus ijtimoiy masofa shkalasi asosida etnik guruhlar o'rtasidagi yaqinlik darajasi tahlil qilinmoqda[6]. Shuningdek, M. K.Dyusembekova, A. B. Abdalinalar Qozog'istonda yashovchi etnik guruhlarining madaniy merosi va huquqlarini himoya qilish masalalarini o'rgangan[7].

O'zbekistonda millatlararo munosabatlar masalasi tarixan ko'p millatli jamiyat, Buyuk ipak yo'li merosi, shahar va qishloq madaniyatlarining o'zaro aloqasi, mahalla instituti, diniy bag'rikenglik an'analari hamda milliy-madaniy markazlar faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Mustaqillik yillarida bu soha davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. 2019-yilda "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi"ning tasdiqlanishi milliy-madaniy markazlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini kuchaytirish, ilmiy-ma'rifiy tadbirlarni rivojlantirishda muhim bosqich bo'ldi[8]. 2025-yilda esa Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha Qo'mita faoliyatining yangi nizom asosida tashkil etilishi ushbu sohaning institutsional jihatdan yangilanganini ko'rsatadi[9].

Qirg'iziston, Moldova, Tojikiston, Belarus, Ozarbayjon, Armaniston va Turkmaniston tajribalarida esa millatlararo munosabatlar masalasi turli yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Qirg'izistonda etnomilliy siyosat, migratsiya, diniy va hududiy omillar; Moldovada etnik ozchiliklar huquqlari, til siyosati, roma aholisi integratsiyasi va ukrainalik qochqinlar masalasi; Ozarbayjonda multikulturalizm va diniy bag'rikenglik; Armanistonda diaspora va geosiyosiy identifikatsiya; Tojikiston va Turkmanistonda esa xavfsizlik, migratsiya, davlat barqarorligi va fuqarolik birdamligi masalalari ko'proq ko'zga tashlanadi. Bu holat postsovet davlatlarida millatlararo munosabatlar yagona shaklda emas, balki har bir mamlakatning tarixiy-etnografik tajribasi va siyosiy-institutsional sharoiti asosida rivojlanayotganini ko'rsatadi[10]. Bu tadqiqotlarga Qirg'izistondan T.A.Sharshabayevaning "Теоретические и практические аспекты реализации этнонациональной политики в Кыргызстане", Moldovadan Bogdan Voicuning "A Study on perceptions and attitudes towards equality. Republic of Moldova", Ozarbayjondan R.Tagiyevaning "Inter-national and Inter-ethnic Tolerance Formed Among the People of Azerbaijan", Armaniston bo'yicha D.D. Chelpanovanning "Migration strategies and adaptation practices of Russians in Armenia after 2022" va hokazolarni misol qilishimiz mumkin. Ularda etnomilliy siyosatni amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlari, tenglik, ijtimoiy munosabatlar va turli guruhlariga munosabat bo'yicha masalalar, millatlararo va etnik tolerantlik shakllanishi, ko'p millatli jamiyat va multikulturalizm tajribalari tahlil qilingan.

Shu tariqa, millatlararo munosabatlarni tarixiy-etnografik asosda o'rganish zamonaviy jamiyatlarda etnik xilma-xillikni boshqarish, umumfuqarolik identifikatsiyasini mustahkamlash, madaniy merosni saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini chuqur anglashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, MDH davlatlarida millatlararo munosabatlarning tarixiy-etnografik asoslari uzoq davom etgan etnik aloqalar, migratsion jarayonlar, madaniy almashinuv, diniy bag'rikenglik an'analari hamda turli xalqlarning umumiy ijtimoiy-siyosiy makonda yashash tajribasi bilan chambarchas bog'liqdir. Tarixiy jarayonlar shuni ko'rsatadiki, ko'p millatli jamiyatlarda barqarorlik faqat ma'muriy boshqaruv yoki huquqiy mexanizmlar orqali emas, balki

etnik guruhlar o'rtasida shakllangan kundalik muloqot, madaniy moslashuv, o'zaro hurmat, umumfuqarolik identifikatsiyasi va tarixiy xotiraning uyg'unlashuvi orqali ta'minlanadi. Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Moldova va boshqa MDH davlatlari tajribasi millatlararo munosabatlarni o'rganishda sotsiologik monitoring, tarixiy-qiyosiy tahlil, etnografik kuzatuv va institutsional yondashuvni birgalikda qo'llash zarurligini tasdiqlaydi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Smith A. D. National Identity. Reno: University of Nevada Press, 1991.
2. Федеральное агентство по делам национальностей. Отчет об основных итогах мониторинга состояния межнациональных и межконфессиональных отношений за период с 1 апреля по 30 июня 2025 г. Москва, 2025; ВЦИОМ. Межнациональные отношения и проблема иммиграции. 18 июля 2024 г.
3. Горлова Ирина Ивановна, Зорин Александр Львович. "Гармонизация межнациональных отношений как фактор, ускоряющий формирование общероссийской гражданской идентичности" // <https://cyberleninka.ru/article/n/garmonizatsiya-mezhnatsionalnyh-otnosheniy-kak-faktor-uskoryayuschiy-formirovanie-obscherossiyskoy-grazhdanskoy-identichnosti/viewer>
4. Стройков В. А. "Проблемы и перспективы развития межнациональных и межэтнических отношений в российском обществе на современном этапе" // Этносоциум. 2023. № 6. –С. 21-27.
5. Смирнова Татьяна Борисовна. "Этническая самоорганизация на постсоветском пространстве: развитие, структура и функции" Этнография. 2024. № 1.-С. 210-234.
6. Министерство культуры и информации Республики Казахстан. Свыше 95% казахстанцев считают межэтнические отношения в стране стабильными и благополучными. 2025. <https://24.kz/ru/news/culture/736176-95-kazakhstansev-schitayut-mezhetnicheskie-otnosheniya-stabilnymi>
7. Дюсембекова М. К., Абдалиева А. Б. "Сохранение культурного наследия и права этнических групп, проживающих в Республике Казахстан" // Sciences of Europe. 2023. № 128. -С.79-82.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son Farmoni. Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. <https://lex.uz/uz/docs/-4597662>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PQ-115-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/uz/pdfs/7438958>.
10. UNDP Moldova. Study on Equality Perceptions and Attitudes in the Republic of Moldova. Chisinau, 2025; OHCHR. Experts of the Committee on the Elimination of Racial Discrimination consider report of the Republic of Moldova. 2024.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000